



CONTEMPORARY POETRY AND THE WORK OF ASQAR MAHKAM

Quljanova To'lganoy Shodiyor qizi

Samdu 2-kurs magistranti.

quljanovat@gmail.com

Abstract

This article provides information about the work of Asqar Mahkam, a prominent representative of the poetry of the independence period. The poet's poetry depicts mystical spirituality and modern spiritual developments, and this process gives rise to new interpretations in the poetry of today. In this regard, the poet's work is taken into the center of analysis in the work.

Keywords: Asqar Mahkam, Sufi spirit, modern poetry, "Vahdat kuyu", "Haq", Sufi philosophy, followership and innovation.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mustaqillik davri she'riyatining yorqin vakili Asqar Mahkam ijodiga doir ma'lumotlar berilgan. Shoir she'riyatida irfoniy ruhiyat va zamonaviy ruhiy evrilishlar tasvirlangan bo'lib, bu jarayon bugungi davr she'riyatida yangicha talqinlarni keltirib chiqaradi. Ishda shoir ijodi shu jihatdan tahlil markaziga olingan.

Kalit so'zlar: Asqar Mahkam, so'fiyona ruh, zamonaviy she'riyat, "Vahdat kuyi", "Haq", tasavvuf falsafasi, izdoshlik va novatorlik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о творчестве Аскара Махкама, видного представителя поэзии периода независимости. Поэзия поэта отражает мистическую духовность и современные духовные тенденции, что порождает новые интерпретации в современной поэзии. В связи с этим творчество поэта рассматривается в центре анализа данной работы.

Ключевые слова: Аскар Махкам, суфийский дух, современная поэзия, «Вахдат кую», «Хак», суфийская философия, последовательство и новаторство.



O'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri shoir, nosir va tarjimon Asqar Mahkam 1958-yil 27-noyabrda Tojikistonning Kofirnihon tumanidagi Jangalobod qishlog'ida tug'ilgan. 1979-yil Kofirnihon tumanidagi Mullodavlat qishlog'idagi 49- o'rta maktabni tugatgach, oradan bir yil o'tib, Xo'jand davlat dorilfununining tarix-filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 1981-yil dorilfununni tamomlab, tumanning bir qator maktablarida o'qituvchi bo'lib ishlaydi. 1984-yil "Xalq ovozi" gazetasiga ishga o'tadi. 1985-yilning bahoridan shoir qismati Toshkent bilan bog'landi. Bu yerda u "San'at", "Nafosat", "Islom nuri", "Movaraunnahr musulmonlari", "Guliston" kabi gazeta va jurnallarda faoliyat olib bordi. O'tgan yillar davomida shoirning "Navro'z", "Tazarru", "Tavajjuh", "Ishq", "Ibodot", "Haq", "Analhaq", "Oq kitob" nomli asarlari nashr etilgan. Shoirning keyingi vaqtlarda yaratilgan she'rlari vafotidan keyin zamondoshlari tomonidan "Vahdat kuyi" (2021-yil) nomi ostida nashr etildi. Aynan shu kitob ijodkorning so'nggi daqiqalardagi ruhiy-ma'naviy kamolotiga xos teran fikrlaridan iborat bo'lib, shoir tilidan buyuk Ruhoniyatga taslim bo'lgan vujud vayronligi-yu, pok ruhning shukronasi kabi yangraydi.

Asqar Mahkam mohir tarjimon sifatida "Avesto", Xo'ja Abdulloh Ansoriyning "Kashf ul -asror" (Qur'oni Karimning adabiy-irfoni tafsiri), Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" (1-daftar) sini, Shams Tabriziyning g'azallari hamda Adib Sobir Termiziy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Nodir Nodirpur, Loyiq, Nizom Qosim, Sayf Rahimzod kabilarning ijodidan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan ("Tuyg'ular yaprog'i", 2005).

Ijodkor hozirgi zamon she'riyatida dolzarb bo'lgan mavzular: ilmni targ'ib qilish, insoniy qadriyatlarni yuksaltirish, taraqqiyot va hurlik g'oyalarini ilgari surish va ijtimoiy hayotdagi muammolarni aks ettirish kabilarni o'z she'riyatining maqsadi deb hisoblagan. Chunki uning she'rlarida hozirgi zamon kishisini shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jihatlar talaygina va buni quyidagicha tasniflash mumkin:

Axloqiy tarbiya. Shoir diniy, ma'rifiy va tasavvufiy mavzudagi she'rlari orqali axloqiy qadriyatlarni targ'ib qiladi. "Muammo" she'rida yomonlikning avj olishini tasvirlarkan, insonlarni unga qarshi kurashga chaqiradi.

Yomonlikning yo'qdir payg'ambarlari,

Yomonlikning yo'qdir valiylari ham.../

... Yomonlik avj oldi olovdek yashnab,

yomonlik yashadi payg'ambarlarsiz.

Shoir yana bir o'rinda avlodlarga ajdodlarni ibrat qilib ko'rsatadi. Ulardan o'rnak olishga undaydi.

Topganimni senga baxsh etgum,



bobolarga tortsin tomiring...

Yana bir o'rinda esa rostgo'ylikni ulug'laydi. Shoirlarni haqiqat kuychisi bo'lishga da'vat etadi.

Men shoir emas shunchaki rostgo'y edim.

Ruhiy-manaviy tarbiya. Shoir she'rlari orqali insonlarni Allohga yaqin bo'lishga, nafsga qarshi kurashishga va sabr-qanoat bilan yashashga chorlaydi.

Imonning kiftida turar osmonlar,

Imonsiz qavmning qoshiga kelmang...

Bunday qavm qo'liga ey musulmonlar,

Qur'on ham bermangiz,

qilich ham bermang...

Shoir bu misralar orqali insonni Haqni anglashga va iymonli bo'lishga da'vat qiladi.

Muhabbat tarbiyasi. Tasavvufiy she'riyatda ishq g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Asqar

Mahkam "Kim oshiq emas, demakki, u jalloddur" misrasi orqali ishqdan mahrum

bo'lgan insonni ruhiy jihatdan qashshoq bo'lishini, ma'rifatga yetishning sharti oshiq

bo'lish ekanligini ta'kidlamogda. Bunda muhim tarbiyaviy jihat borki, inson chin

ma'nodagi mehr-shafqat va sevgi- muhabbat bilan yashashi kerak, aks holda u zolim

bo'lib ketishi mumkin. Albatta bu masala yosh avlod uchun muhim saboqdir.

Sabr- qanoat tarbiyasi. Shoir insonlarni dunyoviy tashvishlardan ustun bo'lishga,

qiyinchiliklarni sabr-qanoat bilan yengishga undaydi. Quyidagi she'rda dunyoning

o'tkinchiligi haqida so'zlarkan, shuhratparastlikni illat sifatida qoralaydi.

Avlodi bashar shaklda har turlikdir,

Shakl oxiri yirtilar, demak, yo'qlikdir.

Obro' tama qilmang sira, yey sho'rliklar,

Shuhrat degani itga mudom qullikdir.

Nafs tarbiyasi. Asqar Mahkamning ma'rifiy-tasavvufiy she'rlaridagi asosiy g'oya

nafsga qarshi kurash, nafsni sindirish g'oyasidir. Bu tasavvufning muhim sharti

hisoblanadi. Nafsni poklash tarbiyaviy ahamiyatga ega jihat bo'lib, inson o'z xohish

istaklarini nazorat qila olishi lozim va bu nafaqat o'zi balki jamiyat uchun ham foydali

bo'ladi.

Kim jomada, kim jandada, tan -to'rt unsur,

"O'ldir" dedi avliyo "nafsni o'ldir!..."

Ey qasr qurib, kulbada jon berganlar,

Dunyoda haqiqat bor esa – u shuldir.

Shoir ushbu misralar orqali dunyoviy boylikka berilib, oxir-oqibat fano bo'lish

haqiqatini yodga soladi. Inson hayoti davomida katta saroylar qurishi, dunyo

lazzatlariga berilishi mumkin, biroq u baribir oddiy kulbada jon beradi, yani o'lim



oldida hech bir moddiy boylik ahamiyatga ega emas. Bu falsafiy qarash tasavvufiy adabiyotda ko'p uchraydi va ma'rifiy tarbiyaviy xulosa beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shoir Asqar Mahkam ijodi orqali mustaqillik davri o'zbek adabiyotiga irfoniy-tasavvufiy ruh kirib keldi. Shoir jamiyatdagi turli muammolarning yechimida qaysidir ma'noda tasavvuf falsafasining g'oyalariga tayandi. Bu esa o'zbek adabiyotida an'analarga qaytish tamoyilini yana bir pog'onaga ko'tardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Mahkam. Haq.–Dushanbe.: “Adib”, 1998, 551–b.
2. A. Mahkam. Vahdat kuyi.–Toshkent.: “Nurafshon business”, 2021, 366–b.
3. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari.–Toshkent, 2010
4. Usmonov I., Olimov S. va boshqalar. Tasavvuf atamallari,-Toshkent.: Movaraunnahr, 2015, 360-b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. –Toshkent.: “Islom universiteti nashriyot-matbaa uyi”,2014, 617–b.